# MAKTABLARDA YAPON TA'LIM USLUBINI JORIY ETISH

***Bobonazarova Dilnoza Baxtiyor qizi***

*Toshkent shahar Uchtepa tumani*

*296-maktab matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu ishda umumta'lim maktablarida ta'lim tizimining dunyo tan olgan yapon ta'limini joriy qilish hamda qo'llaniladigan metodlar, zamonaviy metodlari hamda bu borada ayni damda mavjud muammo va kamchiliklar xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, ta'lim mazmuni yoritilib, ta'lim tizimining asosiy ustuni yosh avlodga ta'lim beruvchi o'qituvchi ekanligi va o'qituvchining malakali, tajribali va savodxon bo'lishligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tizimi, ta'lim mazmuni, yapon ta'lim tizimi, talabchan o'quv dasturi, qo'shimcha ta'lim

**Аннотация:** В данной работе обсуждается внедрение всемирно признанной японской системы образования в общеобразовательных школах и используемые методы, современные методы, а также текущие проблемы и недостатки в этом отношении. Также выделено содержание образования, сказано, что главным стержнем системы образования является учитель, который воспитывает молодое поколение, и учитель должен быть квалифицированным, опытным и грамотным.

**Ключевые слова:** система образования, содержание образования, японская система образования, требовательная учебная программа, дополнительное образование.

**Annotation:** In this work, the introduction of the world-recognized Japanese education system in general education schools and the methods used, modern methods, as well as the current problems and shortcomings in this regard are discussed. Also, the content of education is highlighted, it is said that the main pillar of the education system is the teacher who educates the young generation, and the teacher should be qualified, experienced and literate.

**Key words:** Educational system, educational content, Japanese educational system, demanding curriculum, additional education

Har bir davlat o'ziga xos bo'lgan o'qitish tizimini joriy qilgan. O'qitishning yangicha metodlari orqali yosh avlodga fan, ta'lim va tarbiya masalalarini umumlashtirgan holda tez va oson o'zlashtirishlariga ko'mak beriladi. Butun dunyo tan olgan Yapon ta'lim tizimini qaraydigan bo'lsak uning asosiy tamoyillarini Yaponiya konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. Yaponiyada boshlang'ich ta'lim (6yil) va o'rta ta'lim (3yil) majburiy bo'lib yuqori maktab majburiy emas, lekin o'quvchilarning 96%idan ko'proq qismi o'qishni davom ettiradilar bu esa o'qishga bo'lgan qiziqishning naqadar balandligini ko'rsatadi. O'quvchilarga boshlang'ich va o'rta maktablarda guruh bo'lib ishlash qoidalari shakllantiriladi. Har bir sinfning o'z statsionar sinfi mavjud bo'lib, u yerda o'quvchilar amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlarini amalga oshiriladilar.

Nima uchun yapon ta'lim tizimi muvofaqqiyatga erishgan degan savolga javoban aytish mumkinki, standartlashtirilgan va talabchan o'quv dasturi, rag'batlantiradigan o'qitish yondashuvlariga o'quvchilarni jalb etish, uzoq maktab soatlari, qo'shimcha ta'lim va shu bilan bir qatorda albatta sifatli o'qituvchi. O'qituvchi-tal'im tizimidagi eng muhim insondir, chunki mukammal tizim hamda uni to'g'ri tadbiq etish barobar olib borilganda o'zining yuqori natijasini ko'rsatadi. O'qituvchi faqat mahalliy emas balki, xalqaro va butun dunyo

bo’ylab asoslangan keng ko’lamli bilimlarga ega bo’lishi, turli madaniyatlar va bilimlar bo’yicha shaxsiy tajribaga ega bo’lishi ham o’quvchining ham ta’lim tizimining eng katta yutug’i desak mubolag’a bo’lmaydi. O’qituvchining ta’lim mazmunini chuqur o’zlashtirishi va tadbiq qilishi ta’lim sifatini oshirishga yo’l ochadi. Ta’lim mazmuni-Yosh avlodni tarbiya qilish, taraqqiy ettirish va tarbiyalash maqsadida ma’lumot mazmunidan tanlanib ta’lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko’nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur xodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlar. Ta’lim mazmuni ma’lumot mazmuniga qarab tanlanadi. Ta’lim mazmunini o’rgatish va o’zgartirish yo’li bilan ma’lumot mazmunini amalga oshirishga, shuningdek yoshlarni ma’lumotli qilish, taraqqiy ettirish va tarbiyalashga qarab boriladi.

Xulosa qilar ekanmiz, yosh avlod har bir davlatning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Ularga ta’lim va tarbiya berishning samarali va sinalga usulini joriy etish yo’li bilan yangi tajribalarga va yangi natijalarga erishamiz

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sattorov V. N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES, 3, 710-719. (2023)

2. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70

3. Mirzaev Ch., Sodikov U., Baxromov J. Matematika o'qitishning zamonaviy muammolari.“Psixik taraqqiyot va ta’lim muammolari” O'zMU Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi ilmiy maqolalar davriy to'plami. 2013 yil